**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI**

**"KASBIY TA'LIM" KAFEDRASI**

# Zokirov Azizbek Azimboyevich

**« Korxonalarning moliyaviy natijalari tahlili» mavzusini o'tishda «Charxpalak» texnologiyasini qo'llash**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**
**«Kasbiy ta'lim» kafedrasi mudiri**
**__________i.f.d., prof. A.Omonov**
«__»_____________2013 y.

**Bitiruvchi: 5140900 -"Kasb ta'lim"(Buxgalteriya hisobi va Audit) ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabasi Zokirov Azizbek Azimboyevich**
«__»_____________2013 y.

**Ilmiy rahbar: ___________i.f.n., dots X.Iskanov**

«__»_____________2013 y.

**Ilmiy maslahatchi : __________p.f.n., dots.F.Babashev**

«__»_____________2013 y.

**TOShKENT - 2013**

Men, Zokirov Azizbek Azimboyevich
MKT-55 akadem guruh talabasi ushbu BMIni mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Sana:__________ 2013 yil Zokirov Azizbek Azimboyevich

# M U N D A R I J A

**KIRISH……....…………………………………………………………..3**

**I BOB. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari**

1.1 “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘rganishning maqsadi va vazifalari...............................................6

1.2 “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘rganishning o‘ziga xos jixatlari.................................................10

**II BOB. Mavzuni o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va boshqa samarali metodlarni qo‘llashning amaliy jixatlari**

2.1 Mavzu bo‘yicha dars o‘tishda samarali metodlarni tavsifi……....25

2.2 “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash tartibi…........................…36

**III BOB. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va uni qo‘llashni takomillashtirish**

3.1 “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llab dars samaradorligini oshirish………………………………….............................40

3.2 “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llashni takomillashtirish yo‘llari……………………….........................…………45

**XULOSA VA TAKLIFLAR……..……………………………....………57**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI……………................59**

**ILOVALAR**

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.**

O‘zbekiston respublikasining “Talim to‘g‘risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz talim tizimining metadalogiyasini tashkil etadi. Ushbu jihatlarda kasb madaniyati yuksak malakali mutaxasislarni tayyorlash talimning asosiy vazifasi ekanligi takidlab o‘tilgan. Zero, mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti, fan-texnika va ishlab chiqarishning rivojlanishi mutaxasislarning kasbiy madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Shunday ekan bugungi kunda bo‘lg‘usi mutaxasislarni kasbiy tayyorlash, ular shaxsini shakillantirishga yangicha  nuqtai nazardan yondashish zamon talabidir. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “Yaqin yillarda ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy vazifasi ta'lim muassasalarida yaratilgan moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish, ularni tizimli asosda zamonaviy texnika va uskunalar bilan yangitdan ta'minlab borish, o‘quv jarayoniga ilg‘or ta'lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya tizimini keng joriy etishdan iboratdir[1]”

Demak, bugungi kunda Respublikamizning qator oliy o‘quv yurtlarida turli iqtisosliklar bo‘yicha tayyorlangan kasb talim o‘qituvchilari kasb madaniyatini yuksak darajada egalashi lozim, chunki mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yosh mutaxassis-kadrlarni tayyorlab voyaga etkazadilar.

Shu o‘rinda o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot  ob’ekti va predmeti:**

---

[1] **Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010 yillar)asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011–2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam.– T.:O‘zbekiston, 2011. 135-bet.**

Obeti :Ushbu bitiruv malakaviy ishi bakalavr darajasida bo‘lganligi uchun uzluksiz talimning o‘rta-mahsus kasb-xunar kollejlarida o‘kitiladigan “Korxona moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusi tadqikot obekti sifatida ajratib olindi.

**Predmeti:** : “Korxona moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘kitishda ko‘llaniladigan “Charxpalak” texnalogiyasini qo‘llash jarayonidir.

Ishning maqsadi va vazifalari: “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusida dars o‘tishda «Charxpalak» texnologiyasi qo‘llashni chuqur o‘rganish va uni qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bo‘lib, ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:

► “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishning ilmiy nazariy asoslash.

► Mavzuni o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va boshqa samarali metodlarni qo‘llash.

► “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va uni qo‘llashni takomillashtirish.

► Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasini o‘rganib chiqish va bu boradagi kamchiliklar yuzasidan takliflar kiritish.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy- amaliy ahamiyati:**

1. Iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlarida “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi o‘rganish metodlarini tadqiq qilish natijasida dars o‘tish metodlari tizimida guruhlarni kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish metodini qo‘llash metodi o‘ziga xos alohida o‘rin tutishi, bunga sabab bu metod talabalarning mustaqil ishlash, bir-birini fikrini eshchitish, jamoa bo‘lib ishlashga yo‘naltirishi aniqlandi.

2. Kasb-hunar kollejlarida “Moliyaviy tahlil” fanining va undagi “Korxona moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda o‘quvchilarni fanga va darsga qiziqishini oshirish, mavzuni to‘laqonli tushunishida “Charxpalak” texnalogiyasi va boshqa samarali metodlaridan foydalanish zaruriyati ishlab chiqildi.

3. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasini qo‘llashda guruhlarni kichik guruhlarga bo‘lib dars o‘tish metodini qo‘llashning axamiyati va holatini o‘rganib, mavzuni o‘qitishda metodlarni qo‘llashni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berildi.

Bitiruv malakaviy ishini tarkibiy tuzilishi Qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, uni quyidagicha belgilandi:

Ishning umumiy hajmi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati,  jadvallar va  rasmdan iborat.

Birinchi bobda “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari yoritilgan. Ikkinchi bobda mavzuni o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va boshqa samarali metodlarni qo‘llashning amaliy jixatlari aks ettirilgan. Uchinchi bob esa “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va uni qo‘llashni takomillashtirish tso‘llari ko‘rsatilgan.

# I Bob. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishning ilmiy nazariy asoslari

## 1.1. “Korxonaning moliyavijy natijalarini tahlili” mavzusini o‘rganishning maqsadi va asosiy vazifalari

Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad sof foyda tarkibini, mahsulot (ish, xizmat) lar sotishdan ko‘rilgan moliyaviy natija va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, asosiy ishlab chiqarish faoliyati natijalari, moliyaviy va investitsiya faoliyatlari natijasi, favqulotdagi vaziyatlar natijalari, soliq to‘lagunga qadar foyda va korxona ixtiyorida qolgan yilning sof foydasi hajmini o‘rganishdan iboratdir.

Moliyaviy natijalar taxlilida daromad va harajatlarning o‘zaro farqlanishidagi xolatga baxo beriladi. Moliyaviy natijalar tahlilida foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo‘yicha o‘zgarishlari o‘rganiladi va foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili jaroyonida natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo‘lga qo‘yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini harakterlovchi rentabellik ko‘rsatkichi va uning omilli tahlili o‘tkaziladi.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish korxonalar faoliyatini tubdan isloh qilish, ularni yuzaga kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida rivojlanishini ta’minlash, mamlakatda kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish korxonalarning moliyaviy barqarorligiga uzviy bog‘liq. Korxonalarning moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishi ularning faoliyati davomida olgan foydasining to‘g‘ri shakllantirilishi bilan bog‘liq. Chunki korxonalarda foyda shu erda ishlovchilarning moddiy ta’minlanishining, korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishning, ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilish kabi ishlarning asosiy moddiy manbasi hisoblanadi.

Bozor munosabatlarining rivojlana borishi korxonalarning moliyaviy natijasining belgilovchi muhim omil sifatida foydaning rolini oshiradi. Chunki

foyda korxonalarning kelgusi ravnaqi, ishchi-xizmatchilarning ijtimoiy himoyalashni ta’minlovchi asosiy manbadir. Shuningdek davlat byudjeti daromadining aksariyat qismi ham foydadan to‘lanadigan soliq hisobidan to‘ldiriladi. Shu tufayli ahamiyati muhimligini hisobga olgan holda moliya organlari, soliq inspektsiyasi, auditor va ichki xo‘jalik (hisobchi,iqtisodchi) mutaxassislaridan foydaning shakllanishi va ishlatilishini muntazam nazorat qilib turish talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subekning oldiga qo‘ygan asosiy maqsaddan biri bu foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarning iqtisodiy kategoriyasidir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o‘zining eng yuqori  ahamiyatiga bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti davrida ko‘tariladi. Foydani barpo etish, uni realizatsiya qilish bu kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishni, qiymat qonuni va xo‘jalik yuritish usuli sifatida foydalanadigan xo‘jalik hisobining obektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish shuningdek ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko‘tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishiladi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim[2].





**1-rasm**. Moliyaviy natijani tahlil qilishda asosiy vazifalar[3]

Moliyaviy natijalar tug‘risidagi xisobotni tuzishda uning satrlar buyicha kursatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni harakterlovchi umumiy katorlarning qiymat ifodasi, xisobot davri va o‘tgan yilning shu davri buyicha ma’lumotlarga umumiy izox beriladi.

---

3 A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”,2005. 242-bet.




**2-rasm.**

Vertikal taxlilda: moliyaviy natijalarning shakllanishini bir katorli va kup katorli usullarida uzaro farqlanishlarga va nisbiy uzgarishlarga baxo beriladi.

Gorizontal taxlilida: moliyaviy natijalarning bo'ylamasiga tarkiblanishi va ularning o'zgarishlari o'rganililadi.

Asosli yoki trend: taxlilida moliyaviy natijalar va ularning yillar buyicha o'zgarishi, dinamikasi yoki asosiy yiliga nisbatan o'zgarishlariga baxo beriladi[4].

## 1.2. "Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili" mavzusini o'rganishning o'ziga xos jixatlari

[4] A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" darslik. T.:"Sharq",2005. 241-bet

Bugungi erkin iqtisodiy mo‘nosabatlar sharoitida respublikamizdagi amaldagi huquqiy meyorlarga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subeklarning moliyaviy natijani shakillanishi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar,xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tartibi hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan belgilanadi.

Nizomda keltirilgan xarjatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishga, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subekning moliyaviy natijalarini (foyda va zararini) aniqlashga yo‘naltirilgandir.

Ushbu Nizomning ahamiyati katta bo‘lib, u soliqqa tortiladigan foyda bilan buxgalteriya schyotida (balans foyda) hosil bo‘ladigan foyda forqini aniqlash imkoniyatini beradi.

Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom bir tomondan xo‘jalik yurituvchi subektlarga hisobot davri ichida sodir bo‘lgan xarajatlar va daromadlar to‘g‘risidagi aniq malumotlarni olish imkoniyatlarini bersa,ikkinchi tomondan soliq qonunlariga binoan soliq organlariga hisobotlarni tuzib topshirish imkoniyatini beradi.




**3-rasm**. Moliyaviy natijalar tug‘risidagi umumlashgan ma’lumotlar olish hamda tahlilni amalga oshirishda asosiy axborot manba bo‘lib quyidagilar hisoblanadi[5]

[5] Vohobov A.V.,Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” –T.:”Sharq”,2005. 242 bet.




**4-rasm.** Maskur Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shaklinish qatorlariga quyidagilar kiritiladi[6]

Xar bir korxona o‘z faoliyatini olib borishidan asosiy maksad bu foyda olishdir. Daromadlar, xarajatlar, foyda hamda zarar tushunchalarining qo‘idagi ta’riflari mavjud:

O‘zbekiston Respublikasi «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan daromadlar» nomli 2 – buxgalteriya hisobi milliy standartida daromadlarga qo‘yidagicha ta’rif berilgan:

«Ushbu standartda daromad deyilganda xo‘jalik sub’ektlari oddiy faoliyati davomida olingan daromadlar, shu jumladn, mahsulotni sotish (ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatish)dan olingan daromadlar, olingan foizlar, dividendlar, royatilar va boshqalar tushuniladi[7]».

Xarajatlar – bu aktivlarning kamayishi yoki foydani ko‘paytirish maqsadida xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlarni o‘z zimmasiga olish orqali ro‘y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

Foyda – bu xo‘jalik sub’ektiga ta’sir etadigan asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat, hodisalar, sharoitlar kapitalining ko‘payishi bo‘lib, xususiy kapitalga to‘lanadigan badallar bundan mustasnodir.

[6] A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”,2005. 218-bet.
[7] O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari, Toshkent, 2002 y., 38-bet

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha boshqa operatsiyalar, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo‘lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

Daromadlar va xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» tarkibida aks ettirilib, ular xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining hisobot davrdagi moliyaviy natijalarining foyda yoki zarar ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi. Foyda (zarar), daromadlar va xarajatlarni bir-biri bilan solishtirish natijasida aniqlanadi, ya’ni:

Daromadlar –xarajatlar = foyda (zarar).

Moliyaviy natijalari tahlili tartibida «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»da aks ettiriluvchi ko‘rsatkichlarning shakllanish tartibini ko‘rib chiqish kerak.

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi» hisobotda daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning qo‘yidagi faoliyat sohalari bo‘yicha aks ettiriladi[8].




**5-rasm.**

Asosiy faoliyat yuzasidan daromad va xarajatlarni aks ettirish mahsulot yoki tovar sotuvchi korxonalarda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga nisbatan farq qiladi.

[8] Qarang:Vohobov A.V.,Ibragimov A.T. «Moliyaviy tahlil». Darslik. T.,»O’zbekiston» 2002 yil.75-betlar.

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar o'zining anna shu asosiy  faoliyatini yuritishi uchun 2 yo'nalishda xarajatlarni amalga oshiradilar.

asosiy  faoliyatini yuritishdagi xarajatlarga:

- mahsulot ishlab chiqarish uchun
- umuman asosiy faoliyatni tashkil qilish, boshqarish hamda unga xizmat ko'rsatish yuzasidan.

Moliyaviy natijalarning asosiy qismi maxsulot ish va xizmatlarni sotishdan olinganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu katorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omillar ta'siriga karatiladi.

Maxsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan moliyaviy natija maxsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu maxsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish  tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Savdo tashkilotlarida moliyaviy natijalarni aniqlashda tovarlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu maxsulotlarni sotib olish qiymatini chegirish asosida aniqlanadi.




**6-rasm**. Tahlilda sotishning qatorlari[9].

[9] Qarang:Vohobov A.V.,Ibragimov A.T.  «Moliyaviy tahlil». Darslik. T.,»O'zbekiston» 2002 yil.76-betlar.

Ularni buxgalteriya hisobida alohida hisob ob’ekti yoki daromadlarning yuzaga chiqish shakli yoki o‘rni sifatida tarkiblanishi belgilangan. Bunda asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va sotilishi, boshqa aktivlarni sotishdan olingan natijalar asosiy ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari sifatida qaraladi. O‘larni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda operatsion daromadlar va harajatlar qatori kursatilishi tartiblangan.

Maxsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan foyda yoki zarar o‘zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat beriladi. Maxsulot sotishdan olingan foyda o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir etishi mumkin.




**7-rasm**. Mahsulot sotishdan olingan foyda o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillari.[10]

Firma va kompaniyalarning hisobot davri sof foydasini aksariyat qismi mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija tashkil etadi. Bu quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$Ya\ F = M\ T - Q\ Q\ S - A\ k\ ts - I\ T$$

bunda: YaF – yalpi foyda; MT – mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan tushum.

QQS - qo‘shilgan qiymat solig‘i; Akts – aktsiz solig‘i.

---

[10] A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”,2005. 228-bet.

IT – sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi.

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan tushum hajmi firma va kompaniyalarning qanday baholarda va kimlarga oʻzlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotishligiga, shartnomada koʻzda tutilgan baholarning miqdoriga bogʻliqdir. Yalpi tushumni bilish uchun moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotning tegishli satridan oʻtgan yilgi va hisobot davridagi maʼlumotlaridan qaraladi.

Qoʻshilgan qiymat soligʻi normasi esa Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining har yil uchun tasdiqlagan, soliq qonunida koʻzda tutilgan tartibda belgilangan qoʻshilgan qiymat soligʻi 20% deb koʻzda tutilgan.




**8-rasm**. Sotilga mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi harajatlar iqtisodiy mazmuniga qarab quyidagi turlardan iboratdir.[11]

[11] A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”,2005. 230-bet.

Bozor iqtisodyotiga o‘tish davrida foyda ko‘rmasdan ishlaydigan  korxonalar bo‘lmasligi kerak. Xarajatlarni daromadlari qoplamaydiganlar qarz (kredit) hisobiga yashashadi. Bu esa moliyaviy ahvolni og‘irlashtiradi va pirovard natijada korxona sinadi. Shuning uchun foyda ko‘rish korxonalarning yashashi, raqobatlarga bardoshligi kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy manbai hisoblanadi.

Har bir firma va kompaniya mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmini ko‘paytirish imkoniyatiga egadir, lekin hajmning keskin oshishi tushumni (foyda) kamayishiga ta’sir etadi. Foyda olishning eng quyi va yuqori chegara hamda imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Ya’ni,korxona ushbu chegaraviylikdan quyi holatlarda zararga, yuqori holatlarda foyda ishlashini xarakterlaydi. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik xajm darajasini belgilash iqtisodiy harakatni boshqarishda va biznesni yo‘lga qo‘yishda muhim masala hisoblanadi.




**9-rasm.** Tahlil etishda mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasining belgilanishiga, uning o‘zgarish oraliqlariga va sabablariga ahamiyat beriladi[12].

Bu omillar bevosita hisob-kitob qilinadigan omillar hisoblanadi.

[12] Vohobov A.V., Ibragimov A.T. «Moliyaviy tahlil». Darslik. T.,«O’zbekiston» - 2002 yil.80-bet

Kritik hajm darajasini aniqlashning odatda bir necha usullari mavjud. Kritik xajm darajasini grafik shaklida ifodalash uning mazmunini to‘liq anglashga imkon beradi. Buni bevosita quyidagi ifodadan ham ko‘rish mumkin. Kritik xajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishning fizik xajmi qat’iy baholarda va doimiy xarajatlarda belgilanadi. Uning o‘zgarishi esa ta’sir birliklari farqlanishlari va bog‘lanishlari asosida aniqlanadi.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va harajatlar tahlilida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining maxsulot ish va xizmatlarni sotishdan tashqari faoliyatlardan olingan daromad va yo‘qotishlari tahlil etildi. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan olingan daromad va xarajatlar ko‘pincha operatsion daromadlar va xarajatlar deb ham aytiladi. Operatsion xarajatlar va daromadlar qatoriga boshqa sotishlardan olingan daromadlar yoki ular bo‘yicha yo‘kotishlar kiradi.

Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda yoki zarar bu mahsulotlar sotishdan

olingan yalpi foydadan davr xarajatlarning ayirmasi va boshqa asosiy

faoliyatdan daromadlar yoki zararlar xarajatlarning algebrik yig‘indisidan iboratdir.

Bu quyidagi tartibda aniqlanishi mumkin:

[redacted]

bunda: AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda; YaF - yalpi foyda;

DX - davr xarajatlari. BX - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar. BZ - asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

Davr xarajatlar deyilganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi.




**10-rasm**. Davr xarajatlar tushuniladi[13].

Moliyaviy faoliyatdan olingan natija korxona faoliyat natijaviyligining alohida xisob katori sifatida tarkiblanadi va taxlil etiladi. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar korxonaning fond bozori, moliya bozoridagi faoliyatidan keladigan natijalarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar qatori maxsulot ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, maxsulot ish va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi tug‘risidagi Nizomga muvofik tarkiblanadi. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning korxonalarning jami xisob foydasi tarkibidagi salmogi so‘nggi yillarda bir kadar o‘sib bormoqda. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Taxlilda ularning rejaga va o‘tgan yillarga nisbatan o‘zgarishlariga mutloq va nisbiy o‘zgarishlariga baxo beriladi uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Ta’sir etuvchi omillar har bir tarkib kator buyicha alohida va umumiy asosda urganiladi.

Tahlil uchun zarur bulgan ma’lumotlar moliyaviy natijalar tug‘risidagi moliyaviy hisobotdan va uning katorlari buyicha berilgan izoxlardan olinadi.

---

[13] A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”,2005. 227-bet

Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar, bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar qo‘shiladi va zararlar ayriladi, bu quyidagicha ko‘rsatilishi mumkin.

$$UF = AFF + MD - MX$$

bunda: UF – umumo‘jalik faoliyatidan olingan foyda; AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda; MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari.

**Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar**

- mablag‘larni qarzga berish evaziga olingan foizlar va sho’ba korxonalarga hissali qatnashishdan olingan daromadlar
- O‘zbekiston Respublikasi huddudida va uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingandaromadlar
- aksiyalar bo‘yicha dividentlar, obligatsiyalar va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar
- mol-mulkni uzoq muddatli ijara berishda (lizing) olingan daromadlar
- valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi muomalalar bo‘yicha ijobiy kurs tafovutlar
- Qimmatbaho qog‘ozlarni qayta baholanishidan olingan daromadlar
- Boshqa moliya faoliyatdan daromadlar kiradi

**11-rasm**. Moliyaviy daromadlar[14].

[14] Vohobov A.V., Ibragimov A.T. «Moliyaviy tahlil». Darslik. T.,«O’zbekiston» - 2002 yil. 86-bet

Korxona xisob foydasi yoki soliq tuloviga kadar bulgan foyda (zarar) summasidan foyda daromaddan soliqlar va boshqa foydadan soliqlar, tulovlar va ajratmalarni chegirish asosida korxonaning joriy davr buyicha sof foyda (zarar) summasi aniqlanadi. Respublika soliq qonunchiligiga muvofik barcha xo'jalik xisobidagi korxonalar daromad solig'i to'lovchilari hisoblanadi va ularning ayrim guruhi buyicha doimiy va vaqtinchalik imtiyozlar belgilangan.

Boshqa soliqli tulovlar qatoriga Respublika va maxalliy byudjetga tushadigan ayrim turdagi soliqlar kiritiladi. Ularning turi va undirish tartibi Davlat Soliq qumitasi tomonidan belgilanadi.

Yagona solik tuloviga o'tgan korxonalarda ushbu soliq turi olingan daromaddan qat'iy stavkalarda hisoblanadi va tulanadi.

Soliq to'langunga qadar foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olgan foydaga plyus yoki minus favqulotda (kutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda yoki zarar sifatida aniqlanadi, bu quyidagicha ko'rsatilish mumkin:

$$STF = UF + FP - FZ$$

bunda: STF – soliq to'langunga olingan foyda; UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; FP – favqulotda vaziyatlardan olingan foyda; FZ – favqulotda vaziyatlardan ko'rilgan zarar.

Favqulodda foyda va zararlar moliyaviy natijaviylikning uchinchi tarkib katori xisoblanadi. Uning qatoriga bevosita tasoddifiy xolatlardan kuriladigan natijalar kiritiladi. Masalan Suv toshqini yoki er qimirlashi, engin oqibatida, buronlar oqibatida yoki boshqa tabiat xodisalari asosida ruy beradigan yuqotishlar kiritiladi. Favqulodda foyda yoki daromadalar qatoriga kiritiladigan yoki zararlar qatoriga kiritiladigan alohida moddalar maxsulot ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan maxsulot ish va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi tug'risidagi Nizomda aniq kursatilmagan.

Ularning faqat bitta sharti umumiy Nizomda belgilangan, ya'ni yaqin uch yillik oraliuda korxona uchun odatiy xol xisoblanmagan xolatlardan olinadigan daromadlar yoki foyda summasi korxona uchun kutilmagan xolatlardan olingan daromadlar sirasiga kiritiladi.

Kutilmagan yoki favkulodda xolatlardan olingan daromadlar va ular buyicha yukotishlar moliyaviy natijalar tug'risidagi xisobotning alohida tarkib katori sifatida belgilangan.

Ularni korxonada rejalashtirish amalga oshirilmaydi, ya'ni favkulodda daromad va harajatlar rejalashtirilmaydigan katorga kiritiladi. Ularning xozirgi paytda korxonalar faoliyat natijaviyligidagi salmogi sezilarli ta'sirga ega emas.

Firma va kompaniyalar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning 2-shaklida byudjetga to'lanmalar to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Bunda barcha byudjetga to'lanadigan ajratmalarning turlari hisoblangan miqdor va haqiqatda to'langan summalar ko'rsatiladi. Bunday to'lanmalarga mulkdan olinadigan soliq, foyda (daromad)dan soliq er solig'i, qo'shilgan qiymatdan olingan soliq, aktsizlar, eksport va import bo'yicha boj to'lovlari, suvdan foydalanish to'lovlari, tashqi muhitni ifloslantirilganligi va chiqitlarni chiqargani uchun to'lanma, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa soliqlar, soliq qonunlarini buzilganligi uchun belgilangan iqtisodiy ogohlantirishlar va mahalliy byudjetga to'lanmalar kiradi. Har bir turdagi soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi va Vazirlar mahkamasining mahsus qabul qilingan qarorlaridagi belgilangan stavkalarda amalga oshiriladi.

Korxona ixtiyorida qolgan va uning erkin tasarrufidagi foyda deyiladi.

Ushbu ko'rsatkich soliq to'lovigv qadar bo'lgan foyda summasidan foyda(daromad) dan soliq va boshqa soliqlar, ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sof foyda tahlilda uning o'tgan yillarga, shuningdek, korxona biznes rejasi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi. Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar etiboridagi masala hisoblanadi.

Tashqi axborotdan foydalanuvchilarkorxonaning foydalilik darajasiga, o‘z aktivlarini maqsadli boshqarishning shartlarini belgilashga ham jiddiy ahamiyat berishadi. Masalan, korxona mulkida hissali qatnashuvchilar aktsiya egalari kelishuviga yoki xususiy kapitaldagi ulushiga qarab taqsimlanadigan hisob foydasining holatiga korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda bilan qiziqsalar, invistitsiya homiylari esa korxona faoliyatining barqarorligi va o‘sish darajasiga ko‘proq qiziqadilar.




**12-rasm**. Bugungi kunda korxrna sof foydasining o‘zgarishiga tasir etuvchi omillar mavjud[15].

Agarda moliyaviy natijalarni aniqlashning xalqaro tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak,foyda yoki zararlarni aniqlash,avvalo, xarajatlarni kalkulyatsiya qilishga bevosita bog‘liq ekanligiga guvoh bo‘lamiz.Moliyaviy natijani aniqlash xarajatlarni hisobga olishning usullariga bevosita bog‘liq ekaligini derek-kosting va abzorshen-kosting usullari orqali ko‘rishimiz mumkin.

---

[15] A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”,2005. 234-bet

“Direk-kosting”usulida tannarx hisobi yuritishda faqat o‘zgaruvchan, yalpi bevosita sarflangan material, mehnat va moliyaviy xarajatlar kiritiladi. O‘zgarmas xarakterdagi umumxo‘jalik xarajatlari tannarxi tarkibiga kirmaydi, bunday xarajatlar bevosita korxonaning moliyaviy natijalariga olib boriladi[16].

“Direk-kosting” tizimi bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlash mahsulot sotishdan tushgan tushumdan o‘zgaruvchan xarajatlarni chiqarib tashlab marjinal daromad hosil qilinadi, so‘ngra morjinal daromaddan doimiy xarajatlar chiqarib tashlanadi va operatsion foydaga erishiladi.

“Direk-kosting” tizimida bilvosita umumxo‘jalik xarajatlari davr xarajatlari hisoblanib, ular bevosita moliyaviy natijaga olib boriladi. Bu xarajatlarni foydadan qoplash, shuningdek foydadan qilingan boshqa sarflarni alohida hisobga olish moliyaviy natijalarni (foyda va zararlarni ) alohida faoliyat turlari, jumladan, sotish, umumxo‘jalik, tasodifiy hamda boshqa faoliyat bo‘yicha aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, Direk-kosting soliqqacha foyda, sof foyda kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobda alohida aks ettiradi. Moliyaviy natijalarni shakillanishi va hisobga olinishining bunday tartibi ham mulk egasi uchun, ham davlat nazorat organlari uchun juda qulay hisoblanadi. Aynan shu avzalliklari Direk-kosting usulini dunyo mamlakatlari amaliyotiga tez kirib borishi va tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.

Milliy ishlab chiqarishning rivojlanishi, uning xalqaro standartlarga yaqinlashishi bozor iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarning hisob va tahlil tizimlarini chuqur o‘rganishni taqoza qiladi. Bunda, avvalo, abzorpshen-kosting (Absorption costing) hamda AVS (Activity based cjsting) tizimini chuqur o‘rganish lozim.

Abzorpshen-kosting usuli to‘liq xarajatlarni chegirgan holda hisobga olishni ifodalaydi. Ushbu usul barcha xarajatlarni sotilgan mahsulot va mahsulot qoldig‘i o‘rtasida taqsimlashni bildiradi. Shundan kelib chiqqan holda xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va mamuriy xarajatlarga ko‘ra taqsimlanadi.

---

[16] Xorigren Ch.T., Foster Dj. Buxgalterskiy uchet. Upravlencheskiy aspekt: Per s ang./ od.red.Ya.V.Sokolova-M.:Finansi i statistika, 2003,-s.169-179(416s)

Bu usul bo‘yicha moliyaviy natija tushumdan sotilgan mahsulot tannarxi chiqarib tashlanadi va yalpi foydaga erishiladi, so‘ngra yalpi foydadan sotish va mamuriy xarajatlar chiqarib tashnanib sof foydaga erishiladi.

## II Bob. Mavzuni o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va boshqa samarali metodlarni qo‘llashning amaliy jixatlari

### 2.1. Mavzu bo‘yicha dars o‘tishda samarali metodlarni tavsifi

Hozirgi vaqtda talim muassasalarida qiziqarli zamonaviy tarzda tashkil etishga va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga katta etibor berilmoqda.Talim sohasida pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ularni keng miqyosda qo‘llash jarayonida zamonaviy talim tizimi shakllanadi.




Bu texnalogiyalarni talimda qo‘llash natijasida pedagogik metod va usullarda, tablim beruvchi talim oluvchilar mehnatini tashkil etish shakllarida,talimning iqtisodiy mezonida va hatto hozirgi zamon talim nazaryasi va metodlarida keskin o‘zgarishlar yuz beradi.Xuddi anashunga muvofiq hozirgi paytda avval takidlab o‘tganimizdek, tayyor bilimni o‘zlashtirish asosiy maqsad bo‘lmay, eng asosiysi, talabalarning intelektual qobiliyatlarini rivojlvntirish, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish obektiv zaruriyatga aylandi.

Bu maqsadni amalga oshirish esa ko‘p jihatdan dars o‘tish metodlarini tanlashga bog‘liq. O‘qituvchilarni dars jarayonida turli uslublarni, o‘quv topshiriqlarini qo‘llab talabalarda bilim olishga ishtiyoq uyg‘otishlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning qobiliyatini, ularni individualligini hisobga olgan holda turli metodlarni qo‘llash albatta o‘zlashtirish natijasini ko‘taradi.

Masalan: bazilar mustaqil birinchi bo‘lishga intilishi bilan ajralib turadi.Ular alohida o‘qishni  maqul ko‘radi. Ularga munozara olib borish, konkurslarga qatnashish yoqadi. Boshqalar yolg‘izlikdan ko‘ra hamkorlikda o‘qishga moyil. Ular uchun kooperatsiyalashgan o‘qitish  uslublarini qo‘llagan maqul. Bazi talabalar aniq faktlar, malumotlarni tezroq qabul qiladi. Boshqalari nazariy matematik modellarni yoqtiradi. Bazi talabalar ko‘rgazmali rasmlar, diagrammalar orqali, boshqalari munozara qilganda, ayrimlari esa amaliyotda o‘zi bajarishda qatnashsa yaxshiroq, puxtaroq o‘rganadi.

Demak, talabalar eng avvalo o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi, yodda qolishi uchun olinadigan axborotni iloji boricha eshitish va ko‘rish orqaligina emas, o‘zi gapirishi, o‘z faoliyatida sinab ko‘rishi orqali etkazish katta ahamiyatga ega. Shunga muvofiq  “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda jumladan iqtisodiy fanlarni o‘qitish uslubiyatini takomillashtirilgan turli tuman metodlarni qullash orqali erishish mumkin.

Yuqorida takidlab o‘tilgandek iqtisodiy fanlarni o‘qitishda to‘rli metodlarni qo‘llash orqali takomillashtirishni taqozo etadi.

Talabalarning faolligi yuqori guruhlarda ularni o‘z ustida mustaqil ishlashlarini taminlovchi, erishgan darajada qotib qolmay yanada ko‘proq bilimga undovchi usullar orqali takomillashtirish mumkin.

Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda dars o‘tish metodini tanlashga tasir etadigan yana bir omil darsning shakli va tarkibidir. Albatta, nazariy darsda tanlangan metodni amaliy darsda ham qo‘llash kutilgan natijani bermaydi, shuning uchun o‘qitish metodini tanlash guruhdagi talabalar soni ham katta rol o‘ynaydi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan usulni tanlashda o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida o‘quv jarayonida shakillanadigan munosabatlarda o‘zaro hamkorlik

asosiy ahamiyatga ega. Dars o‘tish uslubiyatini eng muhim omili bu o‘qituvchining darsga tayyorgarlik darajasidir. Chunki qaysi metodni qo‘llash, qanday qilib dars o‘tish, darsning mazmunini talabalar ongiga etkazish o‘qituvchi faoliyatida uning ko‘nikmasi, mahoratiga bog‘liq.

O‘qitish uslubiyatini takomillashtirishda samarali metodlarni qo‘llash, mavjud turli metodlarni orasidan qabul qilingan mezonlar bo‘yicha mavjut sharoitda eng yuqori natijaga erishiladigan metodlarni qo‘llash tushuniladi.

O‘qitish jarayonida turli xil metodlar yani kichik guruhlarga bo‘lib darsni tashkil qilish yani hamkorlikda ishlashni tashkil etish,masala-mashq metodi, insert metodi, klaster, kontseptual jadval va shu kabi metodlarni dars jarayonida qo‘llanilishi pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etilgan o‘ziga xos o‘qitish sharoitini yuzaga keltiradi. Shuningdek, o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Talimni amalga oshirish jarayoniga  zamonaviy pedagogik texnalogyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi.




**13-rasm.** Zamonaviy pedagogika[17].

---

[17] N.N.Azizxujaeva pedagogik texnalogiyasi vapedagogik mahorat. T.:2003. 20, 22 bet.

Bulardan asosiysi o‘quvchilarning muloqat olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarini fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarkibiy vazifalarni bajarilishini taminlaydi va diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.




**14-rasm.** Samarali metodlar[18].

Talim jarayonida pedagogik texnalogyalarni hamda o‘qitish uslubiyatini takomillashtirishda samarali metodlardan foydalanish talabalarning mavzuga oid nazariy yangi bilimlarni shakillantirishga va mavzuni chuqur puxta egallashlariga yordam beradi.

Shuni takidlab o‘tish mumkinki, o‘qitish uslubiyatini takomillashtirish bilan bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkonini beradi.

[18] J.G’.Yuldoshev S.A.Usmonov. zamonaviy pedagogik texnalogiyalari.amaliyotga joriy qilish  T.:2008 82,83 betlar

Inson voqelik haqidagi malumotlarni ko‘rish, eshitish, hid va tam bilish azolari orqali qabul qiladi. Malumotlarni qabul qilishda qanchalik ko‘p sezgi azolari ishtirok etsa, ularni idrok etish va o‘zlashtirish shunchalik oson bo‘ladi.

Talim oluvchilarning nazariy bilimini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish va barcha sezgi azolarini faollashtirish zarur. Bu talim samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Talim jarayonida o‘qitishning qaysi shakli va usullari (hoh ananaviy , hoh interfaol usuli) dan faydalanilmasin, ularni izchil va kema-ket, yani o‘z o‘rnida qo‘llash kerak.

Talim berishning ananaviy metodlari: maruza, namoyish, taqdimot, ko‘rgazmali, to‘rt pog‘anali va boshqalar. Ushbu metodlar qo‘llanilganida talim oluvchilar o‘quv jarayonida faol ishtirok etmaydi.

Talimning interfaol metodlari: aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘tsinlar, ishbilarmonlik o‘yinlari, davra suxbati, bahs munozara, loyiha va boshqalar.

Malumki, maruza o‘qiganda malumotlar faqat tinglash orqali qabul qilinadi.

Amaliyot ko‘rsatadiki, maruza paytida tinglovchilar diqqatini 20-25 daqiqa davomida jalb etish mumkin. Undan keyin tinglovchilarning malumotlarini qabul qilish ko‘rsatkichi pasaya boshlaydi. Shuning uchun ularning ularning o‘zlashtirish darajasi past bo‘ladi. Bunda o‘quv materialining atigi 5-10 % o‘zlashtiriladi, xolos.

Talim oluvchining o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun o‘quv materialini vizuallashtirib, turli ko‘rgazmali tasvirlar yordamida taqdim etish lozim. Bunda o‘quv materiali ham eshitish, ham ko‘rish azolari orqali qabul qilinadi. O‘quv mashg‘ulotida ananaviy va inovatsion talim texnalogiyalari uyg‘un holda qo‘llanilganda talim oluvchilarning diqqat-etibori vaqt davomida o‘zgarib boradi.

Yani mavzuni o‘rganishda 20-25 daqiqalik maruzadan so‘ng, 10-15 daqiqa davomida ko‘rgazmali materiallar asosida tushuntirish, 10-15 daqiqa davomida biror tajribani namoyish qilish yoki misolni tahlil etish va oxirgi 20-25 daqiqada o‘quv materialini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

O‘quv materialini kichik-kichik qismlarga bo‘lib, har 20 daqiqa davomida turli interfaol metodlardan foydalanib o‘rgatish ham yaxshi samara beradi.

Shuni doimo yodda tutish lozimki, talim metodlari va texnalogiyalar mavzuning didaktik vazifasi  hamda o‘quv materialining mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Agar bilimlar ananaviy talim metodlaridan foydalanib, faqat maruza orqali bayon etilsa, 3 kundan so‘ning ularning faqat 25 %ni eslash mumkin, xolos.

Agar mashg‘ulotlar maruza o‘qish, namoish etish, ko‘rgazmali vositalarni qo‘llash va mavzu bo‘yicha bahs munozara yuritish orqali tashkil etilsa, u holda 3 kundan so‘ng o‘rgatilgan bilimlarning 50-75 %ni esga tushirish mumkin. Demak, ilg‘or pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanish talim samaradorligini oshirishning muhim omilidir




**1-chizma. Mashg‘ulot jarayonida ta‘lim oluvchilar diqqat-e’tiborining o‘zgarishi[19].**

Hozirgi paytda talabalorning intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilish obektiv earuratga aylandi.

[19] G.Eldasheva, G. A.Djanalieva  “Talim jarayonida ilg’or pedagogik metod va texnalogiyalardan foydalanish”  T.: kasb-hunar talimi №3, 2012  25-bet

Malumki, iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlar oʻz navbatida ishchi malakasi, mahoratining yuqori boʻlishi, mehnat bozori talabiga moslashuvchan, oʻz malakasini oshirishga intiluchan boʻlishni talab etadi. Shuning uchun oʻquvchi talabalarga ham mustaqil izlanish, fikirlash, turli qarashlarni taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarishni oʻrgatish lozim boʻladi. Buni oʻrgatish, eng avvalo , talim jarayonida amalga oshiriladi.

Talim tizimi, oʻqitishning shakl va metodlari majmui oʻquv jarayonining obektiv qonuniyatlari bilan belgilanadigan yagona didaktik kompleksni tashkil etadi.

Talimda zamonaviy didaktik va talim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi gʻoya va texnalogiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga oʻtilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan oʻqitish texnalogiyalari oʻrtasida bogʻliqlik, amaliyotda davlat talim tizimining yangi shakllarining tashkil etish, hozirgi zamon sharoitida oʻqitishning pedagogik tizimlarini qoʻllash muhim hisoblanadi[20].

Shunga muvofiq biz “korxonaning moliyaviy natijalar tahlili” mavzusini oʻqitishda quyidagi samarali metodlarni qoʻllaymiz, bular quyidagilar:

Malumotlarni tarkiblashtirish va umumlashtirish usul va vositalari, oʻrganilayotgan  tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) oʻrtasida aloqa va aloqadorlikni oʻrnatish; malumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash; muomalarni hal etishni rejalashtirish kabi masalalar qarab chiqiladi.

Malumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy boʻlib chiqish usul va vositalari, oʻrganilayotgan tushunchalar oʻrtasida aloqa va aloqadorlik oʻrnatish

---

[20] Ishmuhamedov R va boshqalar,  “Talimda innovatsion texnalogiyalar”  T.: Istedod, 2008, 79, 82- betlar

Mavzuni yoritishda Klaster metodini keltirib o‘tamiz.




**15-rasm.** Klaster metodi[21].

Mavzu buyicha talabalarni erkin ochiq fikirlashga undaydigan metodlardan biri klaster metodidir. Ushbu metodni mavzuni mukammal o‘rganmasdan turib qo‘llash mumehkin. Klaster muhokama qilinadigan so‘z yoki jumlaga taluqli sifatlar mablum yo‘nalish bo‘yicha guruhlanadi.

Biz metodan mavzuni yoritishda malum tushuncha yoki hodisa haqidagi fikrlarni kengaytirish, turlicha yondashib, muhokama qilish vositasi hisoblanadi. Shu jumladan mavzuni yoritishda eng ko‘p qo‘llaniladigan, duch kelnadigan

[21] B.Xodiev, L.Golish “mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari” T.:TDIU.2007 40-bet

tushuncha-foyda. Foyda tushunchasi asosida klaster tuzdik, buning uchun hayolimizga kelgan barcha so‘z, tushuncha, g‘oyalarni yozib chiqdik.




**16-rasm.** Klaster qo‘llanilishi[22].

Navbatdagi tushunchalarning o‘xshash xassalarini umulashtirib klaster tashkil etuvchilarni toifalarga ajratdik vauni chizmada ifodalab berdik.

Mavzuni klaster metodi orqali qo‘llanilishi metodni nihoyatda keng tuzish mumkin, chunki tahlilda faoliyat natijasi oxir oqibat sof foydaga kelib taqaladi. Klaster juda moslashuchan tsrategiya uni barcha fanlarni o‘rganishda individual yoki guruh tarzida qo‘llash mumkin. Bu esa talabalarda axborotni turkumlash qobiliyatini rivrjlantiradi, fikirlarni tizimlashtirishni o‘rganish imkonini beradi.

Binobarin mavzuni yoritishda pedagogik texnalogiyalardan foydalanish talim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu jumladan kasb-hunar kollejlarida moliyaviy tahlil fanini o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan foydalanish talim samaradorligini taminlashga xizmat qiladi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda biz mavzuni t-sxema metodi orqali ko‘rsatib beramiz.

[22] Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Mavzuni yoritishda T-SXEMA metodini keltirib o‘tamiz.




**17-rasm.** T-SXEMA metodi[23].

[23] B.Xodiev, L.Golish “mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari” T.:TDIU.2007 43-bet

1-jadval[24]

| Mavzu savollari | Mavzu javoblari | ha | yo‘q |
|---|---|---|---|
| Moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifasini ko‘rsating? | Yilning sof foydasi hajmining o‘zgarishiga baho berish | + | |
| Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot shaklining asosiy ko‘rsatkichlari qaysilar ? | ST, YaT, AFF, MFF, UFF, FF, STF, SF. | | - |
| Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilishning usullari qaysilar ? | Vertikal tahlil, gorizantal tahlil, asosli va trent tahlilda. | + | |
| Mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi qanday aniqlanadi ? | Mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumdan sotilgan mahsulotlarning tannarxi ayriladi | | - |
| Mahsulot sotishdan olingan foydaga qanday omillar tasir qiladi ? | - korxonaning o‘ziga bog‘liq omillar yoki ichki omillar;<br>- korxonaning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan omillar yoki tashqi omillar. | + | |

Avvalgi boblardan farqli ravishda bu bobda samarali metadlardan faydalanishda t-sxema matodi uncha katta bo‘lmagan maydonda katta manoga ega bo‘lgan materialini ifodalash imkonini beradi. U ayniqsa modul yoki malum bir qarashlar mazmunini umumlashtirishda foydalanish mumkin. T-sxemani mustaqil tizim bo‘yicha topshiriqlar talabalarni iqtisodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Shu o‘rinda biz t-sxema metodi orqali mavzuni yoritishga harakat qildik.

[24] Muallif tomonidan kiritilgan.

Metodni qo‘llash jarayonida shunday xulosaga keldik. Mavzuni yoritishda t-sxema metodini qo‘llash ko‘p vaqt talab qiladi va katta guruhlarda qo‘llash qiyin lekin shu bilan birga talabalarga bilim, tajriba, kuzatuvlar nuqtai nazaridan muammo echimiga turlicha yondashuvlar bilan tanashuv imkonini beradi hamda talabalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

## 2.2. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash tartibi

Tablim tizimidan keng qamrovli tarkibiy islohatlarni respublika pedagoglari ilg‘or pedagogik texnalogiyalarini o‘zlashtirish va o‘quv jarayonida qo‘llash bilan

Ushbu texnalogiya o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil fikirlab ,berilgan savollarga mustaqil ravishda javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Texnalogiyaning maqsadi o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini o‘zlari baholash, yakka va guruhlarda ishlashga,boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘p fikirlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

Texnalogiyaning qo‘llnilishi texnalogiya o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanshi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.Ushbu texnalogiyani mashg‘ulot jaroyonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg‘ulotda foydalanilgan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster)lar




**18-rasm.** Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi[25].

Tarqatma materialda o‘quvchilar belgilangan to‘g‘ri javoblar bilan o‘qituvchi hamkorligida aniqlangan to‘g‘ri javoblarning farqi 55 foizdan yuqori bo‘lsa ,

[25] Ishmuhamedov R.,Abduqodirov A., Pardaev A “Talimda innovatsion texnalogiyalar”T.: “Istedod” 2008 29-30 bet

o‘quvchi ushbu o‘quv materialini o‘zlashtirgan, undan  kam bo‘lsa o‘zlashtira olmaganligini bildiradi. Masalan,vazifalar soni 30 ta bo‘lib, javoblarning 17-20 tasi to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa, o‘quvchi ushbu vazifani bajargan va o‘quv materialini o‘zlashtira olgan, undan kam bo‘lsa o‘zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblarning 21-24 tasi to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa o‘quvchi materiallarni o‘zlashtirgan darajasi «yaxshi» bahoga, 25-30 tasi to‘g‘ri bo‘lsa «alo» bahoga o‘zlashtirgan deb hisoblanadi.

Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib, biz “Korxonalarning moliyaviy natijalari tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnalogiyasini qo‘llashda qo‘yidagi jihatlarga etiborimizni qaratamiz. Mavzuni o‘qitishda “Charxpalak” texnalogiyasi asosan talabalarni guruhlarga ajratiladi va ular quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi lozim, yani ular quyidagi bosqichlarda ifodalanadi.




**Guruhda ishlash qoidalari**

- har kim o‘z o‘rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
- har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqga masuliyatli yondashishi zarur;
- har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi lozim;
- har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur;

Har kim aniq tushunishi zarur:

- boshqalarga yordamlashib, o‘zimiz o‘rganamiz !

- biz bir kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz yoki birga cho‘kib ketamiz !



Masku xususiyatlardan kelib chiqib eng samarali yo‘li sifatida ta’lim muassasalari faoliyatida ilg‘or ta’lim texnalogiyalarini izchil va maqsadga muvofiq tadbiq etish mashg‘ulotning qiziqarli bo‘lishini ta’minlash bilan birga o‘quvchilar tominidan har bir mavzu bo‘yicha bilimlarning puhta egallashi uchun zamin yaratadi.

## III Bob. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda «Charxpalak» texnologiyasi va uni qo‘llashni takomillashtirish

### 3.1. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llab dars samaradorligini oshirish

Darsni Charxpalak» texnologiyasi qo‘llaganda kichik guruh a’zolarining majburiyatlari alohida o‘quvchi, talabalarga eslatib, kichik guruhning har bir a’zosi:

- o‘rtoqlarining fikrini diqqat bilan eshitishi;
- guruh ishida faol qatnashishi va hamkorlikda ishlashdan bo‘yin tortmasligi;
- zarurat bo‘lganda yordam so‘rashi, undan yordam so‘rashganda, boshqalarga o‘z yordamini berishi;
- guruh ishining natijalarini baholashda ishtirok etishi lozimligini ta’kidlab o‘tishi zarur.

«Charxpalak» texnologiyasi topshiriqni bajarishini kichik guruhlar asosida tashkil qilgan ma’qul, sababi har bir kichik guruhga berilgan topshiriqni bajarishda barcha guruh qatnashadi. Bu esa o‘quvchi-talabalarni birinchidan, mavzuni qanday o‘zlashtirganlarini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ularni mavzuni puxta o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bunda kichik guruhlarda ishlash quyidagicha tashkil etiladi.

Aytaylik, «Korxonaning moliyaviy natijalari tahlili» mavzusida amaliy mashg‘ulot o‘tishda «charxpalak» texnalogiyasida dars o‘tishda kichik guruhlarga bo‘lib qo‘llab o‘tishni rejalashtirdik. U holda o‘quvchilarni qo‘ytlgan maqsaddan kelib chiqib ma’lum kichik guruhlarga ajratamiz.Ko‘rib o‘tgan fazalarimiz bo‘yicha kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilamiz.Aytaylik, 4ta kichik guruh tashkil etildi. A-4 formatdagi qog‘ozda topshiriqlarni beramiz. Topshiriqni tushuntiramiz. Qo‘yilgan savollarga har bir guruh javob berishi kerak. Demak, har bir kichik guruh qo‘yilgan savolga belgilangan vaqt davomida javob bergach, qo‘shni kichik guruhga uzatadi. Shunday qilib, har bir varaq

barcha kichik guruhlardan aydanib, birinchi javob bergan kichik guruhga qaytib kelguncha davom etadi. Har bir guruh o‘z jvrbini boshqa guruhlardan ajralib turadigan rangli ruchkada yozishi mumkin. Bunda tahlil osonlashadi. Ular quyidagicha bo‘ladi.

Quyidagi " Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili " mavzusini o‘rganishda o‘qitishning noan’anaviy usuli – “Charxpalak” texnalogiyasini qo‘llash haqida to‘htalib o‘tamiz, to‘g‘rirog‘i, nazariy mashg‘ulot ishlanmasini keltirib o‘tamiz.

Nazariy dars rejasi

Mavzu: korxonaning moliyaviy natijalari tahlili.

Darsning ta’limiy maqsadi: korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili mavzuzining mohiyati haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: talabalarda iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq mas’uliyat hissini tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: talabalarni moliyaviy tahlil faniga qiziqtirish, ularning iqtisodiy savodxonligini va iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar:

– talabalar moliyaviy natijalarni tahlili va uning tuzilishini

– foyda va rentabellikni oshirish yo‘llari

*Darsda qo‘llaniladigan metodlar:* ma’ruza, “Charxpalak”.

Ta’lim vositalari: qog‘oz, daftar, ruchka, kodoskop, rasmlar, slaydlar, chizmalar va h.k.

Darsning turi: nazariy bilim berish.

Ajratilgan vaqt: 80 daqiqa (minut)

Darsning borishi.

Tashkiliy qism: 5 daqiqa.

Yangi mavzuni bayon etish: 30 daqiqa.

1. Qorxonaning moliyaviy natijalarini tahlil qilishning mohiyati.
2. Tahlil qilish tartibi.
3. korxonaning moliyaviy natijalar tahlilining tashkiliy-huquqiy shakllari.

O‘tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash: “Charxpalak” me-todining qo‘llanilishi - 30 daqiqa.

“Charxpalak” metodining tuzilmasi:

1. Talabalarni guruhlarga ajratish va joylashtirish;

2. Savollarni ishlab chiqish;

3. Talabalarga savollar berish va javobini baholash;

4. Talabalarning “o‘qituvchi”lar yonidan o‘tishi va ularning sa-vollariga javob berishi;

5. Baholarni umumlashtirish va e’lon qilish.

“Charxpalak” metodi qo‘llanilganda guruhdagi talabalar 4 ta kichik guruhga ajratiladi. Talabalarni guruhlarga har xil usulda ajratish mumkin: o‘qituvchi yoki talabalarning ixtiyoriga ko‘ra, bilimlariga qarab, qur’a tashlab, aytaylik, guruhda 12 nafar talaba bor. Ular 1,2,3,4 deb ketmaket sanashadi. Bir degan talabalar birinchi, ikki degan talabalar ikkinchi guruhga ajraladilar. Birinchi guruh talabalar, ikkinchi guruh esa “o‘qituvchilar” rolida ishtirok etishadi. Talabalar rolida ishtirok etganlar ko‘kragiga 1, 2, 3, 4, 5, 6 raqamlari yozilgan nishon taqishadi va aylana shaklida qo‘yilgan stollar atrofida davra qurib o‘tirishadi. Uning ichki tomonidan 6 nafar “o‘qituvchi” rolidagilar joy oladi.

Topshirikni bajarish jarayonida o‘quvchi-talabalar mustaqil, erkin, mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rganadilar. Fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rganadilar.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: kichik guruhlarga topshiriq yozilgan kartochkalar. Kichik guruhlarni javob yozishlari uchun A-4 formatidagi qog‘ozlar.

O‘qituvchi o‘kuvchi, talabalarni qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda tayyorlangan topshiriqqa va boshqa qator mezonlarga ko‘ra guruhni kichik guruhlarga bo‘ladi. Biz ularni 4 ta kichik guruhga bo‘ldik, deylik.

Topshiriqni bajarish shartlarini tushuntirgach, 5 minut vaqtni ichida har bir kichik guruh topshiriqni bajarishi shartligin uqtiramiz. Ular mavzu bo‘yicha bilganlarini yozib berishni aytamiz.

Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

Belgilangan vaqt tugagach, har bir kichik guruhdan bir vakil chiqib, taqdimot qiladi.

Bunda o‘qituvchi guruhning javoblari xech bo‘lmaganda mavzuni o‘rganishda minimal darajada bo‘lishini ta’minlashi kerak.

Bunda har bir talaba stol atrofida soat strelkasi yo‘nalishida birin-ketin “o‘qituvchi”lar yonidan o‘tadi va ularning savollariga javb beradi.

1- kichik guruh savollari:

1. Moliyaviy natijalarning shakllanish katorlariga nimalar kiradi?

2. Mahsulotlar sotishdan ko‘rilgan yalpi moliyaviy natija qanday aniqlanadi?

3. Yalpi moliyaviy natijaning hajmiga qanday omillar ta’sir etadi?

4. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi qanday aniqlanadi?

5 Davr xarajatlari deganda nimani tushunasiz?

6. Moliyaviy faoliyatning foydasi nimalarni o‘z ichiga oladi?

Har bir “o‘qituvchi”ning yonidan 6 nafar talaba o‘tishi kerak.

6 nafar “o‘qituvchi” yonidan o‘tib, savollariga javob bergan ta-labaning bilimini baholaydi.

2-kichik guruhning savollari:

1. Moliyaviy faoliyatning xarajatlariga qanday sarflar kiradi?

2. Favqulotdagi foyda va zararlar deganda nima tushuniladi?

3.Sof foyda va unga tasir etuvchi omillar qanday tahlil qilib chiqiladi?

4.Soliq to‘lagungacha bo‘lgan moliyaviy natijalar qanday tahlil etiladi?

5.Moliyaviy natijani tahlil qilishdagi normativ huquqiy hujjatlar?

6.Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda nimani tushinasiz vau qanday tahlil etiladi?

Ushbu bosqichda ham ta’lim jarayoni yuqoridagi tartibda davom etadi. Talabalarning bergan javoblari baholanadi va uni baholash varaqasiga belgilab boriladi. Shu tariqa barcha talabalarning bilimi baholanadi. O‘qituvchi esa, talabalar ishiga aralashmay, mashg‘ulotning borishini chetdan kuzatadi. Talabalarning olgan baholari e’lon qilinib, yutuq va kamchiliklari tahlil etiladi.

Guruhlarning javoblari muhokama qilinadi. Har bir kichik guruh boshqalarni ishini tahlil qilib, o‘zlari nuqtai nazaridan erishgan yutuqlari kamchiliklarini ko‘rsatib o‘tishadi.

O‘qituvchi barcha bildirilgan fikrlarga yakun yasaydi hamda kichik guruhlar va har bir o‘quvchini baholaydi.

1- kichik guruh javoblari:

1. - Asosiy faoliyatdan moliyaviy natija

- Moliyaviy faoliyatdan natija

- Favkulodda kutilmagan xolatlardan natija

2. Mahsulot(tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumdan sotilgan mahsulotlarning tannarxi ayriladi

3. - korxonaning o‘ziga bog‘liq omillar yoki ichki omillar;

- korxonaning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan omillar yoki tashqi omillar.

4. A F F = Ya F - D X +B D - B Z

bunda: AFF - asosiy faoliyatdan olingan foyda;

YaF - yalpi foyda;

DX - davr xarajatlari.

BX - asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

BZ - asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar

5. Davr xarajatlar deyilganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi:

6. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar korxonaning fond bozori, moliya bozoridagi faoliyatidan keladigan natijalarni o‘z ichiga oladi

2-kichik guruhning javoblari:

1. -mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari;

-chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlari;

- o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq arajatlar

- moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont daromadlar tushuniladi.

2. Yayaqin uch yillik oraliuda korxona uchun odatiy xol xisoblanmagan xolatlardan olinadigan daromadlar yoki foyda summasi korxona uchun kutilmagan xolatlardan olingan daromadlar sirasiga kiritiladi.

3. SF=YaF+-AFF+-UF+-STF tarkibida tahlil qilinadi.

4. S T F =U F + F P - F Z

bunda: STF – soliq to‘langunga olingan foyda;

UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

FP – favqulotda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulotda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar

4. Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar,xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tartibi hamda moliyaviy natijalarni shakillantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan daromadlar» nomli 2 – buxgalteriya hisobi milliy standarti.

### 3.2. “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llashni takomillashtirish yo‘llari

Dars o‘tishda o‘qitish metodlaridan foydalanish fanni o‘rganishga qo‘yilgan talablar fanning mazmuniga va o‘ziga xos jihatlariga alohida ahamiyat berishni taqazo etadi. Fanni o‘rganishda materialini murakkabligi va miqdori ham muhim rol o‘ynaydi. Demak, dars o‘tishda, mavzuni yoritishda uni talabalar ongiga etkazib berishdagi asosiy jihatlar hisoblanadi. Shu jumladan biz avvalgi boblardan farqli ravishda bu bobda, “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusini o‘qitishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llashni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

Har bir fan jumladan “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusi sifatida moliyaviy tahlil fanini ham hisobga olganimizdagina samarali dars o‘tish metodini tanlashimiz, shunga muvofiq ravishda o‘quvchi, talabalarni darsga faol qatnashishini taminlashimiz mumkin.

Har bir fanning boshqa fanlardan farqlanuvchi xususiyati eng avvalo, uning predmeti, fanning oldiga qo‘yilgan maqsadi, funktsiyalarida o‘z aksini topadi.

Shunga muvofiq biz “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusida “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash misolida qo‘llab tahlil qilib beramiz. Buning uchun guruhni kichik guruhlarga bo‘lib ular uchun har biriga alohida topshiriqlar tayyorliymiz va ularga tarqatamiz.

Maruza jarayonida qo‘llaniladigan masala, mashqlar  doimo real malumotlar asosida bo‘lishi shart emas, maruzada berilgan masala oddiy bo‘lishi, maruzani murakkablashtirmasligi, nazariy qonun qoidalarni puxta o‘zlashtirishlariga hisoblar, raqamlar orqali mustahkamlashga yordam beradi. Shu jihatdan o‘quvchi, talabalar tomonidan nazariy savolni o‘zlashtirish qiyin kechishini hisobga olib masalani uchish esa ularni darsliklardan mexanik tarzda konspek qilishning foydasi yo‘qligiga ishonch hosil qilishlariga olib keladi. Chunki masalani echish  u yoki bu iqtisodiy kategoriya, qonunlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yodlashni oldini oladi.

Miqdoriy bog‘lanish, bir-birini taqazo qilishi, ular asosida xulosa chiqarish uchun bilish, tushunish, tahlil ilish, taqqoslash, o‘z bilimidan foydalanishni talab qiladi.

Mavzuni yoritishda “Charxpalak” texnologiyasi asosida masala-mashq metodini shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

- Takidlangan fikrga nisbatan o‘z nuqtai nazarini bildirish va uni asoslab berishni talab qiluvchi mashqlar;
- Hayotda yuz bergan hadisalarni, jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirib berishga qaratilgan mashqlar;
- berilgan tapshiriqni mushohada qilib, xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi mashqlar

Biz mavzuni yoritishda metodning ushbu jihatlarini hisobga olgan holda masala-mashqlarni qo‘llash uchun ularni mavzular bo‘yicha tuzishga harakat qildik. Masala-mashq metodini kamchilik va muammolarini bartaraf qilish uchun mavzudagi asosiy tushunchalar, terminlar hamda moliyaviy tahlil fanining asosiy tamoillaridan “Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili” mavzusida topshiriqlar tayyorladik.

Avvalo, guruhni 4 ta kichik guruhlarga bo‘lib oldik va ulrning har biri uchun topshiriq tayyorladik. Bunda biz talabalarni mavzuga doir jadvallar bilan tanishtiramiz.

1.Korxonaning “moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot (2-shakl) malumotlari bilan tanishing. Ushbu hisobot malumotlari asosida korxonaning umumiy moliyaviy natijalari tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlil eting va xulosa yozing.

*2-Jadval*

**Moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlarining tahlili**[26]

| Ko‘rsatkichlar | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | o‘zgarishi (+,-) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Summa, ming so‘m | Soliq to‘langunga cha bo‘lgan foydaga nisbatan salmog‘i,% | Summa, ming so‘m | Soliq to‘langungac ha bo‘lgan foydaga nisbatan salmog‘i, % | Summada | % da |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda | | | | | | |

[26] B.J.Xakimov, A.T.Ibroximov, N.F.Ishonqulov, X.P.Mirzaev “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”fanidan masalalar to’plami T.:2011 45-bet

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar | | | | | | |
| 3. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi | | | | | | |
| 4. Umumxo'jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi | | | | | | |
| 5. Favquloddagi foyda va zararlar | | | | | | |
| 6. Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar) | | | | | | |
| 7. Daromad (foyda)dan soliq va boshqa soliqlar | | | | | | |
| 8.. Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar | | | | | | |

Axborot manbai: Korxonaning "moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot (2-shakl)

2. Korxonaning "moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot malumotlariga asosan, korxonaning mahsulot sotishdan olgan foydasi va uning o'zgarishiga tasir etgan omillarni tahlil eting va xulosa yozing.

**Mahsulot sotishdan olingan foyda va uning o'zgarishini omilli tahlili.**

(ming so'mda)

3-jadval[27]

[27] B.J.Xakimov, A.T.Ibroximov, N.F.Ishonqulov, X.P.Mirzaev "Moliyaviy va boshqaruv tahlili"fanidan masalalar to'plami T.:2011 47 va 51-bet

| Ko‘rsatkichlar | O‘tgan yil | Hisobot yili o‘tgan yil tannarxida | Hisobot yili |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m | | | |
| Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m | | | |
| Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so‘m | | | |

Axborot manbai: Korxonaning “moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot (2-shakl)

3. Korxona malumotlaridan foydalanib, korxonaning sof foydasi va uning o‘zgarishiga tasir etuvchi omillarni tahlil eting va xulosa qiling.

**Sof foyda va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili** 4-jadval

(ming so‘mda)

| Ko‘rsatkichlar | o‘tgan yili | hisobot yili | farqi (+,-) |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda | | | |
| 2. Davr xarajatlari | | | |
| 3. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va yo‘qotishlar | | | |
| 4. Moliyaviy faoliyatdan foyda va zararlar | | | |
| 5. Favquloddagi foyda va zararlar | | | |
| 6. Foydadan soliq va boshqa soliq hamda ajratmalar | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Joriy yilning sof foydasi | | | |

Axborot manbai: Korxonaning “moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot (2-shakl)

4. Korxonani hisobot malumotlaridan foydalangan holda, rentabellik ko‘rsatkichlarini o‘rganing, tahlil eting va ularning o‘rganishga tasir etuvchi omillarni aniqlang hamda xulosa yozing.

5-jadval[28]

**Rentabellik ko‘rsatkichlari, ularning turlari va ta’sir etuvchi omillar tahlili**

| № | Ko‘rsatkichlar | o‘tgan yili | hisobot yili | farqi (+,-) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m | | | |
| 2 | Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m | | | |
| 3 | Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so‘m | | | |
| | Sof foyda, ming so‘m | | | |
| | Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati (qoldiq qiymatda), ming so‘m | | | |
| | Oborot mablaglarining o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m | | | |
| | Korxonaning jami mulki, ming so‘m | | | |

[28] B.J.Xakimov, A.T.Ibroximov, N.F.Ishonqulov, X.P.Mirzaev “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”fanidan masalalar to’plami T.:2011 52-bet

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | O‘zlik mablag‘lari manbai, ming so‘m | | | |
| | Qarz mablag‘lari, ming so‘m | | | |
| 0 | Mahsulot sotish rentabelligi, % | | | |
| 1 | Asosiy vositalar rentabelligi, % | | | |
| 2 | Oborot mablag‘lari rentabelligi, % | | | |
| 3 | Mol-mulk rentabelligi, % | | | |
| 4 | O‘z mablag‘lari rentabelligi, % | | | |
| 5 | Qarz mablag‘lari rentabelligi, % | | | |
| 6 | Umumiy rentabellik, % | | | |
| 7 | Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi, % | | | |

Axborot manbai: Korxonaning “Buxgalteriya balansi” (1-shakl), “moliyaviy natijalar to‘g‘risida”gi hisobot (2-shakl), “Asosiy vositalar harakati to‘g‘risida”gi hisoboti (3-shakl).

Har bir guruh kim javob berishni o‘zi tanlaydi. Javobga ko‘ra bal beriladi. Agar kichik guruhlarda faol qatnashmayotgan talabalar bo‘lsa o‘qituvchi ularga alohida mujaat qilib, qo‘shimcha topshiriqlar berishi mumkin.

O‘qituvchi to‘g‘ri yoki nato‘g‘riligi tezda aniqlash uchun o‘zi tayyorlagan javoblardan foydalanishi mumkin.

1-kichik guruhning javobi quyidagicha:

**6-Jadval**

Moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlarining tahlili

| Ko‘rsatkichlar | Yil boshiga | | Yil oxiriga | | o‘zgarishi (+,-) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Summa, ming so‘m | Soliq to‘langungacha bo‘lgan foydaga nisbatan salmog‘i, % | Summa, ming so‘m | Soliq to‘langungacha bo‘lgan foydaga nisbatan salmog‘i, % | Summa-da | % da |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda | 3221907 | 731 | 5675211 | 278 | 2453304 | -453 |
| 2. Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar | 2750353 | 624 | 3858590 | 198 | 1083358 | -426 |
| 3. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi | 716851 | 162.5 | 2086797 | 102.2 | 1369946 | -60.4 |
| 4. Umumxo‘jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi | 440709 | 100 | 2041322 | 100 | 1600613 | - |
| 5. Favquloddagi foyda va zararlar | | | | | | - |
| 6. Daromad solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar) | 440709 | 100 | 2041322 | 100 | 1600613 | - |
| 7. Daromad (foyda)dan soliq va boshqa soliqlar | 95262 | 21.6 | 324144 | 15.8 | 228882 | -5.8 |
| 8.. Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar | 345447 | 78.4 | 1717178 | 84.2 | 1371731 | 5.8 |

Xulosa. Yuqoridagi jadval malumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxona joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 1371731 ga sof foydasi ko‘paygan, sof foydaning ko‘payishiga asosan, Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyning o‘tgan yilga nisbatan 2453304 ga va davr xarajatlar 1083358 ga hamda soliq to‘lagunga qadar foyda 1600613ga ortgani tasir qilgan.

2-kichik guruhning javobi quyidagicha:

**Mahsulot sotishdan olingan foyda va uning o‘zgarishini omilli tahlili. (ming so‘mda)**

2-jadval

| Ko‘rsatkichlar | O‘tgan yil | Hisobot yili o‘tgan yil tannarxida | Hisobot yili |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m | 19974577 | 27830405 | 29778533 |
| Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m | 16752670 | 22526468 | 24103321 |
| Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so‘m | 3221907 | 5303937 | 5675212 |

Xulosa. Yuqoridagi jadval malumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilayotgan korxona joriy yilda Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda miqdori o‘tgan yilga nisbatan 2453305 ming so‘mga o‘sgan. Bu o‘zgarish quyidagi omillar hisobiga bo‘lgan, mahsulot ishlab chchiqarish hajmining miqdor jihatdan o‘zgarishi hisobiga mahsulot sotishdan olingan foyda summasi 2082030 minga ortgan.

3-kichik guruhning javobi quyidagicha: Sof foyda va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

(ming so‘sda) 3-jadval

| Ko‘rsatkichlar | o‘tgan yili | hisobot yili | farqi (+,-) |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda | 3221907 | 5676211 | 2453304 |
| 2. Davr xarajatlari | 2750353 | 3858590 | 1108237 |
| 3. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va yo‘qotishlar | 716851 | 2086797 | 1369946 |
| 4. Moliyaviy faoliyatdan foyda va zararlar | 296388 | 73826 | -222562 |
| 5. Favquloddagi foyda va zararlar | - | - | - |
| 6. Foydadan soliq va boshqa soliq hamda ajratmalar | 440709 | 2041322 | 1600613 |
| Joriy yilning sof foydasi | 345447 | 17171778 | 1371731 |

Xulosa. Yuqoridagi jadval malumotlaridan ko‘ra, korxonaning sof foydasi 1371731 so‘mga ortgan bunga sabab mahsulot sotishdan olingan yalpi foydani o‘tgan yilga nisbatan 2453304 so‘mga ortganligi sabab bo‘ldi. Hamda korxonaning davr xarajatlari vaasosiy faoliyatning boshqa faoliyatlardan ko‘rilgan sarflar110337 so‘mga oshgan.

3-kichik guruhning javobi quyidagicha:

Rentabellik ko‘rsatkichlari, ularning turlari va ta’sir etuvchi omillar tahlili.

**4-jadval**

| № | Ko'rsatkichlar | o'tgan yili | hisobot yili | farqi (+,-) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm | 19974577 | 29778533 | 9803956 |
| 2 | Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm | 16752670 | 24103321 | 7350651 |
| 3 | Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm | 3221907 | 5675211 | 2453304 |
| 4 | Sof foyda, ming so'm | 345447 | 1717178 | 1371731 |
| 5 | Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (qoldiq qiymatda), ming so'm | 440709 | 2041322 | 1300613 |
| 6 | Oborot mablaglarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 2548480 | 2747813 | 199333 |
| 7 | Korxonaning jami mulki, ming so'm | 18293869 | 26507339 | 8213470 |
| 8 | O'zlik mablag'lari manbai, ming so'm | 21454664 | 29979632 | 8524968 |
| 9 | Qarz mablag'lari, ming so'm | 9886543 | 18748978 | 5862435 |
| 10 | Mahsulot sotish rentabelligi, % | 11568127 | 14230654 | 2662533 |
| 11 | Asosiy vositalar rentabelligi, % | 16.13 | 19.05 | 2.92 |
| 12 | Oborot mablag'lari rentabelligi, % | 13.55 | 62.49 | 48.94 |
| 13 | Mol-mulk rentabelligi, % | 1.88 | 6.47 | 4.59 |
| 14 | O'z mablag'lari rentabelligi, % | 19.23 | 23.54 | 4.31 |
| 15 | Qarz mablag'lari rentabelligi, % | 3.49 | 10.9 | 7.41 |
| 16 | Umumiy rentabellik, % | 1.61 | 5.72 | 4.4 |
| 17 | Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi, % | 1.65 | 5.86 | 4.21 |

Xulosa. Yuqoridagi jadval malumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxona hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan barcha rentabellik bo'yicha o'sish kuzatilgan. Bu shundan dalolat beradiki korxonaning samaradorligi o'sib borayotganligidan hamda uning moliyaviy holatini yaxshiligidan dalolat beradi.

Mavzuni kichik guruhlarga bo‘lib o‘rganish jarayonida ushbu guruhlarga vaqt berilishi, test tuzishni yoki echishni topshirish, bildirilgan fikr to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini asoslab berishni talab qilinadi. Guruhni baholaganda olbatta topshiriq javoblariga qaraladi. Dads yakunida o‘qituvchi eng faol qatnashganlarni o‘zi tomonidan elon qilish uchun imkoniyat berib so‘ngra o‘zi bugungi darsda qaysi guruuh ko‘p bal to‘pladi va qaysi talabalar eng faol qatnashganini ko‘rsattib va barcha talabalarni baholaydi. Mavzu bo‘yicha topshiriqlarni tayyorlash va ularni qo‘llash jarayonida quyidagi xulosalarga keldik.

Moliyaviy tahlil fanida mavzu bo‘yicha eng samarali metodlardan masala va mashqlar echish va guruhlarni kichik guruhlarga bulib dars o‘tish metodi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar mavjud:

- Metodni qo‘llash uchun ko‘p vaqt va qo‘shimcha joy bo‘lini talab qiladi
- Har bir ishtirokchi uchun alohida tarqatma materiallar talab etiladi.
- Ishtirokchilarning o‘zlashtirish darajasi har xilligi sababli ko‘tiladigan natijaga har doim ham erishilavermaydi
- Hamma talabalar ham darsga faol qatnashmasligi mumkin
- Guruh uziga berilgan topshiriqlardan chalg‘ib yo‘l-yo‘riqlarga amal qilmasligi yoki topshiriqlarni noto‘g‘ri tushunishi mumkinligi
- Talabalarning birotasi boshchilik qilishi, agar guruh bunga qarshilik ko‘rsatmasa, uning ustidan nazorat qilishni o‘z qo‘liga olishi mumkinligi.

Moliyaviy tahlilni o‘rganishda talabalar asosay tushunchalar va axborot manbalarini puxta o‘rganishi kelgusidagi mavzularni chuqur o‘zlashtirishiga olib keladi. Bu esa dars samaradorligini oshirishga va talabalar faolligini taminlashga yordam beradi.

# XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insondir.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan madaniyat, texni, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratishdan iborat.

"Kadr tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmuni zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlar ko'zda tutilgan.

Buning uchun, avvalo, uzluksiz ta'lim tizimining barcha shakldagi ta'lim muassasalarida ta'lim arayoni sifatini ta'minlovchi ilg'or ilmiy-metodik jihatdan asoslangan uslublarni amalda qo'llash lozim. Fan texnika ilg'or edi. Texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning maqsad mazmuni, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash pedagoglar faoliyatida har bir ishga ijodiy yondashishiga bog'liq.

Shu o'rinda "Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili" mavzusini o'qitishda "Charxpalak" texnologiyasini qo'llash mavzusini o'qitishda "Charxpalak" texnologyaisini qo'llash mavzusida tadqiqot ishlari olib borib, quyidagi xulosalarga kelindi.

"Korxonaning moliyaviy natijalarini tahlili" mavzusini o'qitishda "Charxpalak" texnologiyasini qo'llash mavzusini o'rganishda talabalarni darsga faol qatnashishdarni va ta'minlovchi boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash, o'quvchi talabalar bir-biri bilan fikrlari almashishlari bilan o'rtoqlashishi, o'rgatish imkonini keng metodlardan biri kichik guruhlari bo'lib dars o'tish metodidir.

Bitiruv malakaviy ishining masalalarni yoritishda va axborot texnologiyalarini tashkil etishda muammo va kamchiliklarni inobatga olib qo'shimcha ravishda talabalarning individual xususiyatlari, bilimlarni sinash uchun tavsiyalar berildi.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi bitiruv oldi pedagogik amaliyotida olgan tajribalarga va nazariy bilimlarga asoslanib, o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash, o‘quvchi talabalarning o‘z o‘ylari va fikrlari bilan ko‘proq o‘rtoqlashishga hamda kichik guruhlarda talabalar aytishlari mumikn bo‘lgan fikrlarni ayta olishadi, bilish jarayonining faollashtirishiga, o‘quvchilarda jamoa yoki guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllanishiga va beradigan savol va javoblarni asoslab berishga o‘rgatadi.

Hozirgi kunda bu metoddan foydalanish quyidagi talablar darajasida bo‘lishligini ifodalaydi.

Jumladan:

- “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash uchun maxsus metodik adabiyotlar hamda alohida xonalar mavjud emasligi;

- dars jarayonida “Charxpalak” texnologiyasini foydalanish uchun hamma o‘qituvchilarni ham mahorat va tajribasi etarli emas;

- guruh o‘ziga berilgan topshiriqlardan chalg‘ib, yo‘l-yo‘riqlarga aniq amal qilmasligi yoki topshiriqlari noto‘g‘ri tushunishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, chiqarilgan xulosalar asosida mavzuni chuqur o‘rganishga erishish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

- mavzuni o‘rganishda “Charxpalak” texnologiyasini qo‘llash va dars samarali tashkil etish uchun qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda topshiriq tayyorlash kerak;

- talabalarga ularni auditoriya joylashib olishlari uchun vaqt berish va shundan keyin ulardan topshiriq ustida ishlay boshlashiga yordam berish lozim;

- yo‘l-yo‘riqlarni yana bir takrorlash lozim;

- talabalarni yo‘l-yo‘riqlariga nechog‘lik aniq amal qilib borishayotganini va topshiriqlardan chetga chiqishmayotganini qayta tekshirish lozim;

- har qanday turdagi pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan va topshiriqlarni bajarishda boshqaruvchi rol o‘qituvchiga tegishli bo‘lishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Prezidentining asarlari:**

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O‘zbekiston", 2005 y.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» qonuni. Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. T. «Sharq» 2001.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» Qonun. Oliy ta’lim. Me’yoriy hujjatlar to‘plami. T. «Sharq» 2001.

1.5. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida", O‘zbekiston Respublikasining ќonuni 1996 yil, 30-avgust.

1.6. «Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // O‘zbekiston ovozi, 2012 yil 28 may

1.7. Karimov I, A, «Barkamol avlod orzusi», T.: Sharq, 1998.

1.8. Karimov I.A. "O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda". Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining o‘n to‘rtinchi sessiyasidagi ma’ruza. 1999 yil 14 aprel. " T.: "O‘zbekiston". 1999.

1.9.. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. Toshkent, «Ma’naviyat», 2009

1.10 Karimov I. «2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi» // Xalq so‘zi. 2012 yil 20 yanvar, №14.

1.11. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi 19 yanvar 2013 yil

**II. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar:**

2.1. Bobojonov O., Jumaniyozov K. T. «Moliyaviy hisob» «Moliya», 2002.

2.2. Vahobov A., Ibroximov A. “Moliyaviy tahlil”. – T.: Sharq, 2002.

2.3. Vahobov A. V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N. F. “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” T.: “Sharq” 2005 y;

2.4.Ishmuhamedov R., Abduqolirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsiln texnologiyalar. Toshkent, 2008

2.5.Yo‘ldoshev J. Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O‘ќuv ќo‘llanma. T.: «Iqtisod -moliya» 2009

2.6. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004

2.6. Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. Darslik -T.: O‘ќituvchi, 2001

2.7. Norbekov D., Nurmonov U. “Iqtisodiy tahlil” T: “Iqtisod – moliya”, 2006 y

2.8. Omonov H.T., Xo‘jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. T.: «Iqtisod -voliya» 2009.

2.9. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: «Moliya», 2003.

2.10.Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o‘ќitig metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T.: «Fan va texnologiya», 2007.

2.11. Tojiboeva D., Yoldoshev A. Maxsus fanlarni oqbtish metodikasi. Darslik. - T.: “Aloqachi”, 2009

2.12. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N..Pedagogika kursi. –T.: O‘qituvchi, 1997.

2.13 A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” darslik. T.:”Sharq”, 2005.

2.14. Ishmuhamedov R.,Abduqodirov A., Pardaev A “Talimda innovatsion texnalogiyalar”T.: “Istedod” 2008

**III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar:**

3.1. Burxonov U. kasb-hunar ia’limi: muammo va echimlar. O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi: «uzviylik va uzluksizlik» mavzuchidagi Respublika ilmiy-amaliy seminarii. –T., 2012, 11-bet.

Babashev F. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar ta’limi samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. «Kasbiy ta’lim muammolari va echimlar» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminarii. T., 2011.

3.3. «Kasbiy ta’lim: muammolar va echimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminarining ma’ruzalar materiallari va tezislari to‘plami. Toshkent 2011.

3.4.“Iqtisodiy fanlarni o‘qitish uslubiyoti” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi. Prof. B.Hodievning umumiy tahriri ostida /«Iqtisodiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi» seriyasidan./ Uslubiy qo‘llanma –Toshkent: TDIU, 2010.

3.5. O‘zbekiston iqtisodiyoti 2002. T.: 2003. 78-bet

3.6.Osnovnie pokazateli razvitiya narodnogo obrazovaniya i podgotovki kadrov za 2006 god. Statisticheskiy byulleten. Tashkent: 2008, str. 63-66. Moliya vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**IV. Internet saytlari**

. www. buhgalt.ru

. www.jurnal-audit.ru

. http://www.apb.org.uk (Auditing Practices Board)

. http://www.iasc.org.uk (International Accounting Standards Committee)

. http:FFwww.aicpa.orgFindex.htm (American Institute of Certified Public Accountants)